

MORFOLOGIYADA SIFATNING RAVISHGA KO‘CHISH HOLLARI

Rustamova Maftuna Botirjonovna

SamDCHTI Sharq tillari fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalish

2-bosqich 2410-guruh talabasi

dilya1988m@icloud.com

Annotatsiya: Maqolada sifat so‘z turkumidan ko‘chib ba‘zi o‘rinlarda ravish holatida qo‘llaniladigan leksikalarning tahlili haqida so‘z yuritilgan. Sifat so‘z turkumi ham belgini bildirib kelishi, Ravish so‘z turkumi ham belgini bildirib kelishini bilamiz, ammo, qanday hollarda uni sifat? qanday hollarda ravish deb olamiz? Maqolada shu kabi savollarning javobi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Sifat so‘z turkumi, ravish so‘z turkumi, ko‘chish, leksika, belgi,

Bugunga kelib O‘zbekiston hududida o‘zbek tilini mukammal o‘rgatish va o‘rganish kuchayib bormoqda, shu sababli ham oldimizga qo‘yilayotgan muammolarni bartaraf etish uchun biz yoshlarga imkoniyatlar avvalgi yillardagi ko‘rsatkichlarga nisbatan oshdi. Davlatimiz raxbari 2022-yil, 20-dekabrda mamlakat parlamentiga yo‘llangan murojatnomasidagi so‘zlariga ko‘ra, «mening farzandim chet tillarini biladiyu, ona tilini bilmaydi, degan gap Yangi O‘zbekistonga ma‘qul emas». «Chet tilini bilishi kerak, lekin ona tilini bilishga majbur», — deya qo‘shimcha qildi prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Shu tufayli ham tilshunoslar tomonidan olib borilayotgan ilmiy ishlar, fanga tegishli bo‘lgan yangiliklarga yetarlicha e‘tibor berib kelinmoqda. Tilshunoslikka doir yangidan-yangi terminlar¹⁹ izohlari bilan dissertatsiya ishlarida yoritilyabdi, va bunday mavzular biz talabalarning ham e‘tiboridan chetda qolmadi.

Sifat kategoriyasidagi so‘zlar biror predmet, voqea-hodisa va holatning belgi xususiyatlarini (ya‘ni rang-tusini, hajmini, shaklini, harakter xususiyatlarini, vaznini mazasini) ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: qizil alvon, sabrli odam, qaysar qiz, qattiq shamol, shinam uy. Demak, predmet, holat va voqea-hodisaning belgisini, xossa-xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiluvchi so‘zlar sifat deb ataladi.

Harakat va holatning belgisini, belgining belgisini (sifat va ravishning), ba‘zan predmetning (ot) belgisini bildiradigan mustaqil so‘z turkumi ravish deyiladi. Masalan: Qutlug‘jon tez orada o‘zbekcha biyron-biyron gaplasha boshladi. Yuqorida sifat va ravishga

¹⁹ Termin (lotincha: terminus — „chegara“, „had“) — bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi. Termin umumxalq tshtiga muayyan terminologik tizim orqali o‘tadi, binobarin, termin va umumiste‘moldagi so‘zlar bir-birini to‘ldiradigan leksik birliklardir. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Termin>

ta’riflar berilgan va maqolaning asosiy maqsadi bo‘lgan sifat so‘z turkumini ravishga ko‘chishini ko‘rib chiqsak. O‘zbek tilida shunday so‘zlar bormi? Ya’ni sifatdan ravishga ko‘chgan? Deb ko‘plab savollarga bugun javob topishga harakat qilamiz. O‘zbek tili grammatikasida²⁰ shunday beriladi: Sifatlar ot o‘rnida qo‘llangan singari boshqa so‘z turkumidagi so‘zlar ham (ot, sifatdosh, ravishlar) sifat o‘rnida qo‘llanilishi mumkin. Ko‘pincha otlar ko‘chgan ma’noda yoki emotsional-ekspressiv ma’nolarni ifodalash uchun predmet belgisi vazifasida ishlatiladi: zahar(odam), tilla(bola), shakar(qiz), oltin(yigit), kumush(suv) kabi. Ikromjon...yog‘och oyog‘iga belini ko‘tarib suykalayotgan mushukning shikoyatli miyovlashiga loqayd qarab o‘tiribdi(Said Ahmad). Sifatdoshlar belgi ma’nosini ifodalab, sifat vazifasida qo‘llanadi: kelishgan yigit, oqar suv, kelishmagan qiliq kabi. Ravishlar sifat vazifasida qo‘llanilishi mumkin: ruscha kitob, oqilona maslahat, tez odam. Bundan anglashimiz mumkin bo‘ladiki ravish so‘z turkumida bugungi kun muammolaridan bittasi ham shu ya’ni boshqa so‘z turkumlari o‘rtasidagi chegaraning noaniqligi. Ba’zi sifatning ravish vazifasida ishlatilishiga to‘xtalsak: bu chiroyli qo‘g‘irchoq bo‘lsa bu yerda sifat, chiroyli gapirdi bo‘lsa bu yerda ravish. Mening fikrimcha agar sifat so‘z turkumidagi leksema o‘zidan keyingi otga bog‘lansa unda sifat, o‘zidan keyingi felga bog‘lansa bunda ravish bo‘lib keladi. Bunda bevosita ushbu misollarni keltiramiz:

yaxshi: “u yaxshi o‘qiydi.”

Tez: “u tez yuguradi”

Baland: “u baland gapiradi”

Past: “u past ovozda gapirdi”

To‘g‘ri: “ishni to‘g‘ri bajarding”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. o‘zbek tili grammatikasi 1-tom Morfologiya 1975-yilgi nashri 305-bet

2. [file:///C:/Users/user/Downloads/Tursunpo'latova+Komila+Rustamjon+qizi%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/Tursunpo'latova+Komila+Rustamjon+qizi%20(2).pdf)

maqola

3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sifat>

4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/sifat-so-z-turkumi-4>

²⁰ O‘zbek tili grammatikasi 1-tom morfologiya O‘zbekiston SSR “fan” nashriyoti Toshkent-1975 yil nashri nazarda tutilgan.